Сравнительный анализ основных методов начисления амортизации показывает существенные различия в распределении амортизационных отчислений по периодам использования актива. Для наглядной демонстрации этих различий рассмотрим гипотетический пример приобретения производственного оборудования узбекским предприятием первоначальной стоимостью 50000000 сум с ликвидационной стоимостью 5000000 сум и сроком полезного использования 5 лет. В таблице 1 представлены результаты расчета годовых амортизационных отчислений при использовании трех основных методов амортизации.

Таблица 1 – Сравнение амортизационных отчислений при различных методах (тыс. сум)

Год	**Линейный метод**	**Метод уменьшаемого остатка (коэффициент 2,0)**	**Производственный метод (объем производства: год 1-30%, год 2-25%, год 3-20%, год 4-15%, год 5-10%)**
1	9000,0	20000,0	13500,0
2	9000,0	12000,0	11250,0
3	9000,0	7200,0	9000,0
4	9000,0	800,0	6750,0
5	9000,0	0,0	4500,0
Итого	45000,0	40000,0	45000,0

Данные таблицы 1 демонстрируют, что при линейном методе амортизационные отчисления распределяются равномерно по всем периодам использования актива, что обеспечивает стабильность расходов и простоту планирования. Метод уменьшаемого остатка концентрирует значительную часть амортизационных отчислений в первые годы эксплуатации актива, что может быть экономически обосновано для активов, которые быстро теряют свою производительность или подвержены моральному устареванию, например, современное текстильное или информационно-технологическое оборудование. Производственный метод обеспечивает прямую связь между амортизационными отчислениями и фактическим использованием актива, что наиболее точно отражает потребление экономических выгод от актива в течение периода [1; 5].

Влияние выбора метода амортизации на финансовые показатели узбекской организации является значительным и должно учитываться при формировании амортизационной политики. В таблице 2 представлен анализ влияния различных методов амортизации на чистую прибыль организации при прочих равных условиях, предполагая выручку 100000000 сум в год, прочие операционные расходы 75000000 сум в год и ставку налога на прибыль 15% (действующая ставка в Узбекистане).

Таблица 2 – Влияние методов амортизации на чистую прибыль (тыс. сум)

Показатель	Год 1 (линейный)	Год 1 (ускоренный)	Год 1 (производственный)	Год 3 (линейный)	Год 3 (ускоренный)	Год 3 (производственный)
Выручка	100000,0	100000,0	100000,0	100000,0	100000,0	100000,0
Операционные расходы	75000,0	75000,0	75000,0	75000,0	75000,0	75000,0
Амортизация	9000,0	20000,0	13500,0	9000,0	7200,0	9000,0
Прибыль до налогообложения	16000,0	5000,0	11500,0	16000,0	17800,0	16000,0
Налог на прибыль (15%)	2400,0	750,0	1725,0	2400,0	2670,0	2400,0
Чистая прибыль	13600,0	4250,0	9775,0	13600,0	15130,0	13600,0

Результаты, представленные в таблице 2, показывают, что применение метода ускоренной амортизации приводит к существенному снижению чистой прибыли в первый год использования актива по сравнению с линейным методом (4250000 сум против 13600000 сум), однако в последующие годы эта тенденция меняется на противоположную. Совокупная чистая прибыль за весь период использования актива остается одинаковой при всех методах амортизации, но распределение прибыли по периодам различается [3; 6]. Это создает эффект налогового щита в ранние периоды при использовании ускоренной амортизации, что может быть выгодно с точки зрения дисконтированной стоимости налоговых платежей для узбекских предприятий.

Анализ влияния амортизационной политики на балансовую стоимость активов и финансовые коэффициенты представлен в таблице 3, которая демонстрирует динамику остаточной стоимости актива и ключевых показателей эффективности использования активов.




Рисунок 1. Балансовая стоимость актива и показатели эффективности

Данные рисунки наглядно демонстрируют, что выбор метода амортизации существенно влияет на финансовые коэффициенты, используемые для оценки эффективности деятельности узбекской организации. При применении ускоренной амортизации балансовая стоимость активов снижается быстрее, что приводит к росту показателей рентабельности активов и оборачиваемости активов в поздние периоды использования, создавая иллюзию улучшения эффективности деятельности при неизменных операционных результатах [7]. Это необходимо учитывать при проведении финансового анализа и сравнении показателей различных организаций или различных периодов деятельности одной организации.

Формирование эффективной амортизационной политики требует учета множества факторов, включая характер использования активов, финансовую стратегию организации, налоговое планирование и требования к финансовой отчетности. Для активов, производительность которых существенно снижается с течением времени или которые подвержены быстрому моральному устареванию, применение ускоренных методов амортизации более точно отражает экономическую реальность потребления выгод от актива. Для активов с относительно равномерным использованием на протяжении всего срока службы линейный метод обеспечивает соответствие расходов и доходов. Производственный метод наиболее подходит для активов, использование которых значительно варьируется по периодам и может быть надежно измерено в натуральных показателях [4; 8; 9].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведенное исследование позволяет сделать вывод о том, что формирование амортизационной политики является важным управленческим решением, влияющим на финансовое положение узбекской организации, ее налоговые обязательства и показатели финансовой отчетности. Анализ основных

методов начисления амортизации показал, что каждый метод имеет свои преимущества и области рационального применения, и выбор метода должен основываться на характеристиках конкретных активов и целях организации. Количественный анализ продемонстрировал значительное влияние выбора метода амортизации на распределение расходов по периодам, чистую прибыль и финансовые коэффициенты, что подчеркивает необходимость тщательного обоснования амортизационной политики.

Результаты исследования показывают, что применение ускоренных методов амортизации создает налоговые преимущества в ранние периоды использования активов за счет переноса налоговых платежей на более поздние периоды, что увеличивает приведенную стоимость денежных потоков организации. Однако использование различных методов амортизации для финансовой и налоговой отчетности создает необходимость учета временных разниц и отложенных налогов, что усложняет бухгалтерский учет. Влияние выбора метода амортизации на финансовые коэффициенты должно учитываться при проведении финансового анализа и сравнении показателей различных организаций или периодов.

Практическая значимость исследования заключается в том, что полученные результаты могут быть использованы финансовыми менеджерами и главными бухгалтерами узбекских предприятий при разработке учетной политики организации в части амортизации основных средств и нематериальных активов. Рекомендации по выбору методов амортизации для различных категорий активов позволят обеспечить более точное отражение экономической сущности операций в финансовой отчетности и оптимизировать налоговую нагрузку организации в условиях налогового законодательства Республики Узбекистан. Перспективы дальнейших исследований связаны с анализом влияния амортизационной политики на инвестиционные решения организации и оценку стоимости бизнеса.

КОНСОЛИДАЦИЯЛАШГАН МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТУЗИШНИНГ АМАЛИЙ ВА АҲАМИЯТЛИ ЖИҲАТЛАРИ

Ҳожиева Г.Х.
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Аудит” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу тезисда консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишнинг бугунги кундаги аҳамияти, вазифалари, консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузувчи хўжалик юритувчи субъектлар ва ҳисобот шакллари ҳақидаги фикрлар ёритилган.

Калит сўзлар. Консолидациялашган молиявий ҳисобот, инвесторлар, бош жамият, шўъба хўжалик жамиятлари, гуруҳ, алоҳида молиявий ҳисоботлар.

Бугунги кунда ҳар бир соҳадаги интеграция ва глобаллашув жараёнининг тобора жадаллашиб бораётганлиги ва бу турли соҳаларнинг такомиллашиши хамда ривожланишига катта ҳисса қўшаётганлиги барчага маълум. Кўплаб соҳалар сингари бухгалтерия ҳисоби ва аудитда хам сезиларли ўзгаришлар амалга ошмоқда.


Шундай шароитда дунё бўйлаб, хусусан, Ўзбекистонда хам йирик компаниялар ва уларнинг таркибига кирувчи шўъба корхоналар сони йилдан-йилга ортиб бораётганлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Бундай вазиятда бош компания ва унинг таркибий қисми ҳисобланувчи шўъба компаниялар ҳисоботларини тўғри тузиш, тартибга солиш ҳамда консолидациялашнинг тўғри амалга оширилишини таъминлаш бугунги кун бухгалтерия ҳисоби ва аудитининг асосий масалаларидан биридир.

Маълумки, молиявий ҳисоботлар тузилишининг асосий сабабларидан бири инвесторлар, йирик кредиторлар ва бошқа молиявий ҳисоботдан фойдаланувчиларнинг қизиқишларини ортишига замин яратишдир.

Бу бўйича Президентимизнинг 2020 йил 14 февралдаги 4611-сонли қарорига асосан молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар асосида тузиш лозимлиги белгиланган.

Йирик солиқ тўловчи компаниялар молиявий ҳисоботларини тузишларида, шўъба корхоналар ҳар йили молиявий ҳисобот шаклларини тузиш мақсадида бош корхонага маълумотларни йиғма шаклда тузишни белгилаб беради. Бунинг натижасида бош корхона шўъба корхоналар молиявий ҳисоботларини йиғиб, ҳар чорак ва йиллик ҳисоботларни йиғиб, консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузади.

Шу ўринда консолидациялашган молиявий ҳисобот ҳақида сўз борганда энг кўп учрайдиган тушунчаларни эслаб ўтамиз.



1- расм.Консолидациялашган молиявий ҳисоботнинг асосий вазифалари

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан ишлаб чиқилган 8-сонли бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартида қуйидаги асосий тушунчалар келтирилган:

- Бош жамият - ўз таркибида бир ёки бир неча кичик жамиятларга эга


бўлган хўжалик юритувчи субъектдир.

- Гуруҳ - бош жамият ва унга қарашли барча шўъба жамиятлардир.
- Шўъба хўжалик жамияти - бош жамият назорат қилувчи хўжалик юритувчи субъект.
- Консолидациялашган молиявий ҳисоботлар - маълум ҳисобот санасидаги молиявий ҳолатни ва хўжалик юритувчи жамиятлар гуруҳининг ҳисобот даври учун молиявий натижаларни акс эттирувчи кўрсаткичлар тизимидир.
- Алоҳида молиявий ҳисоботлар-гуруҳ ҳар бир аъзосининг консолидациялаш лозим бўлган ҳисоботидир.

Турли хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг кўп қирралилиги ҳисобга олганда, молиявий ҳисоботлар фойдаланувчиларни иқтисодий қарорлар қабул қилиш учун зарур бўлган барча ахборот билан таъминлай олмайди. Шунинг учун йиллик молиявий ҳисоботларга қўшимча равишда маъмурият томонидан тузиладиган молиявий шарҳ киритилиб, унда хўжалик юритувчи субъект молиявий фаолияти ва молиявий ҳолатининг асосий белгилари тушунтириб берилади ва улар дуч келаётган асосий ноаниқликлар баён қилинади.

Агар бош жамият таркибига кирувчи шўъба корхонанинг ҳисоб объектлари ёки хўжалик жараёнларига нисбатан ҳисоб сиёсати бош жамият ҳисоб сиёсатига тўғри келмаса, консолидациялашган ҳисобот тузиш учун корректировкаларни киритиш, яъни, мослаштириш амалга оширилади.

Ўзбекистонда консолидациялашган молиявий ҳисоботнинг қуйидаги шакллари мавжуд:



2- расм. Консолидациялашган молиявий ҳисобот шакллари

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишда БҲМСлардан фойдаланиш бир қанча нуқсонларни келтириб

чиқармоқда. Масалан, инвесторлар учун энг муҳим жиҳат саналган ахборотларнинг шаффофлиги ва очиқлиги борасида камчиликлар кузатилмоқда. Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишда чет эл тажрибалари асосида халқаро стандартларнинг қўлланиши ушбу соҳа ривожини таъминлаган бўларди.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI KUCHAYTIRISH ORQALI IMTIYOZLI KREDITLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Aliqulov Hazrat Amirkulovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vositalari orasida imtiyozli kreditlash alohida o‘rin tutadi. Imtiyozli kreditlar tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va aholi farovonligini ta’minlash kabi strategik maqsadlarga erishishning muhim moliyaviy dastagi hisoblanadi. Biroq, ushbu kreditlar davlat byudjeti yoki maxsus jamg‘armalar hisobidan subsidiyalanishi sababli, ularning maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash davlat moliyaviy siyosatining eng dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Aynan shu nuqtada davlat moliyaviy nazoratining roli yuzaga chiqadi, chunki qat’iy nazorat tizimisiz imtiyozli kreditlar o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy vazifasini bajara olmaydi.

Mavzuning dolzarbligi avvalo shu bilan izohlanadiki, imtiyozli kreditlash mexanizmi davlatning bevosita moliyaviy resurslarini iqtisodiyotga yo‘naltirish shaklida amalga oshiriladi. Bu esa har bir ajratilgan mablag‘ning samaradorligi nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Mablag‘lardan o‘z maqsadiga muvofiq foydalanilmasligi, ya’ni belgilangan tarmoq yoki loyihadan tashqari yo‘naltirilishi davlat tomonidan kutilgan multiplikativ samarani yo‘qqa chiqaradi va davlat byudjetiga qo‘shimcha yuk tushiradi. Shu sababli, imtiyozli kreditlar harakatini boshidan oxirigacha kuzatib boradigan, kreditning maqsadli ishlatilishini tahlil qiluvchi va natijaviy ko‘rsatkichlarni baholaydigan chuqur moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish bugungi kun talabidir.

Keyingi muhim jihat — bu imtiyozli kreditlash sohasidagi korrupsion va suiiste’mol xavf-xatarlarining mavjudligi. Davlat tomonidan past foiz stavkasi, uzoq muddat yoki imtiyozli to‘lov shartlari bilan ajratilgan mablag‘lar tabiatan “arzon pul” sifatida idrok etilganligi sababli, ularga bo‘lgan talab har doim yuqori bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida kreditlarni taqsimlash bosqichida g‘ayriqonuniy kelishuvlar, soxta hujjatlar, ko‘zda tutilmagan vositachilik va boshqa salbiy holatlarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Shu bois mavzuning amaliy ahamiyati ham ortib borayotgan bo‘lib, faqat samarali tashkil etilgan davlat moliyaviy nazoratigina bunday salbiy hodisalarning oldini olish va resurslarni haqiqiy ehtiyojmandlarga yetkazib berish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida nazorat usullarini yangilash zaruratidir. An’anaviy tekshiruv-revizion mexanizmlar zamonaviy moliyaviy oqimlarning tezligi va murakkabligiga javob bera olmaydi. Imtiyozli kreditlar ko‘pincha murakkab sxemalar orqali turli xil hisob-kitob raqamlari va yuridik shaxslar o‘rtasida harakatlanadi, bu esa ularning izini ushlab qolishni qiyinlashtiradi. Shu sababli davlat moliyaviy nazoratini risk-asosli yondashuv, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va onlayn monitoring tizimlari bilan boyitish hozirgi davrning dolzarb vazifasiga aylangan.

Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, imtiyozli kreditlardan samarali foydalanish ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, bu kreditlarning samarasiz sarflanishi inflyatsion bosimni kuchaytiradi, byudjet defitsitini chuqurlashtiradi va moliyaviy tizimga ishonchni susaytiradi. Demak, davlat moliyaviy nazoratining roli sof tekshiruv funksiyasidan ancha kengroq bo‘lib, u makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim institutsional element sifatida namoyon bo‘ladi. Mavzuning ilmiy tadqiq qilinishi davlat siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy adolat tamoyili nuqtai nazaridan ham bu mavzu nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Imtiyozli kreditlar, mohiyatan, jamiyatning umumiy resurslarini muayyan toifadagi tadbirkorlar yoki fuqarolarga afzal shartlarda yo‘naltirishni anglatadi. Bunday taqsimot to‘g‘ri tashkil etilmasa, jamiyatda iqtisodiy tengsizlik chuqurlashishi, kichik biznes vakillari va chekka hududlardagi ishlab chiqaruvchilar resurslardan chetda qolishi mumkin. Shaffof va izchil davlat moliyaviy nazorati esa imtiyozlarning haqiqatdan ham qo‘llab-quvvatlashga muhtoj subyektlarga yetib borishini ta’minlaydi, shu orqali ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyiliga rioya etilishiga zamin yaratadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, imtiyozli kreditlash siyosati muvaffaqiyatli amal qilayotgan davlatlarda institutsional nazorat tizimi yuqori darajada tashkil etilgan. Audit organlari, Hisob palatalari, ichki nazorat xizmatlari va mustaqil ekspertiza institutlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmi imtiyozli mablag‘lar harakatining har bir bosqichini qamrab oladi. Bu tajribani milliy sharoitga moslashtirish va tatbiq etish — har bir taraqqiy etayotgan iqtisodiyot uchun ustuvor masala hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi, demak, faqat ichki ehtiyojlar bilan emas, balki global moliyaviy boshqaruv standartlariga integratsiyalashish zarurati bilan ham izohlanadi, bu esa tadqiqot ahamiyatini yanada oshiradi.

Va nihoyat, ushbu mavzuning kompleks va tizimli xususiyatga ega ekanligi uning ilmiy-amaliy salohiyatini belgilab beradi. Davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish orqali imtiyozli kreditlardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, axborot-texnologik va kadrlar siyosatiga oid jihatlarni o‘z ichiga oladi. U bir

vaqtning o‘zida byudjet siyosati, bank-moliya tizimi islohoti, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mavzuning shu qadar ko‘p qirraliligi va davlat boshqaruvining markaziy yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatishi uni nafaqat akademik tadqiqot, balki amaliy siyosatni shakllantirish nuqtai nazaridan ham eng dolzarb mavzulardan biri darajasiga ko‘taradi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH YO’LLARI

Xujumov Nurbek Obidjon o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari milliy iqtisodiyotning eng muhim bo'g'inlaridan biri sifatida nafaqat moliyaviy vositachilik vazifasini bajaradi, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlashda, investitsiya resurslarini samarali taqsimlashda va ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Banklarning investitsiya faoliyati orqali iqtisodiyotga yo'naltiriladigan kapital oqimlari mamlakat taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini belgilab beradi va makroiqtisodiy muvozanatni saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bank tizimining iqtisodiy faolligi, uning resurs salohiyati va investitsiya layoqati to'g'ridan-to'g'ri yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlariga, ish bilan bandlik darajasiga va aholining turmush farovonligiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, banklar moliyalashtirayotgan investitsiya loyihalari texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va innovatsion mahsulotlarni yaratishda asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini ilmiy asosda o'rganish va uni davlat tomonidan oqilona tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda eng dolzarb iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va xalqaro moliya tizimlariga integratsiya jarayonlari tijorat banklari oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Banklarning real sektorni moliyalashtirish, infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlari kengayib bormoqda. Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayonlari, davlat-xususiy sherikchilik tamoyillari asosida tashkil etilayotgan yirik infratuzilma loyihalari, energetika, transport va kommunikatsiya sohalaridagi modernizatsiya ishlari banklardan katta hajmdagi uzoq muddatli investitsiya resurslarini talab qiladi. Bunday sharoitda banklarning investitsiya salohiyatini oshirish, ularning kapital bazasini mustahkamlash hamda investitsiya faoliyatining samaradorligini ta'minlash davlat ahamiyatiga molik

vazifaga aylanadi. Ana shu sharoitda tijorat banklarining investitsiya portfelini shakllantirish, qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki va uzoq muddatli kapital qo'yilmalarini boshqarish masalalari alohida ahamiyat kasb etib, ularni samarali tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Davlat moliyaviy nazorati bank tizimining barqarorligini ta'minlashda, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishda, shuningdek, tizimli moliyaviy inqirozlarning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Banklar investitsiya faoliyati bilan shug'ullanar ekan, ular nafaqat o'z xususiy resurslari, balki jismoniy va yuridik shaxslardan jalb qilingan mablag'lar bilan ham ish ko'radilar, bu esa banklarning ijtimoiy mas'uliyatini va davlat nazorati ostidagi mavqeyini yanada oshiradi. Omonatchilarning ishonchini saqlash, ularning mablag'larini xavfsizligini kafolatlash bevosita davlat moliyaviy nazoratining sifati va samaradorligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, bank tizimining tizimli ahamiyati shundaki, biron-bir yirik bankning to'lov qobiliyatini yo'qotishi butun moliya tizimida zanjirli reaksiya keltirib chiqarishi va real iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun nazorat organlari oldiga banklarning xavf-xatarli aktivlarga qo'yilmalarini cheklash, kapital yetarliligini ta'minlash, likvidlik holatini doimiy kuzatib borish va stress-testlar o'tkazish kabi murakkab vazifalar yuklanadi. Davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi esa iqtisodiyotning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning kafolati sifatida xizmat qiladi.

Jahon moliya bozorlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning bank sohasiga keng kirib kelishi, kriptovalyutalar, blokcheyn texnologiyalari va yangi moliyaviy mahsulotlarning paydo bo'lishi tijorat banklari investitsiya faoliyatini tartibga solishning an'anaviy usullarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Fintech kompaniyalarning bank xizmatlari bozoriga kirib kelishi, raqamli aktivlarning keng tarqalishi, masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi nazorat organlari oldiga butunlay yangi xarakterdagi muammolarni qo'ymoqda. Globallashuv sharoitida moliyaviy xavflarning chegaralarni bilmasdan tarqalishi, transmilliy bank operatsiyalarining murakkablashuvi, ofshor zonalardan foydalanish hollarining ko'payishi nazorat tizimini yangi sifat darajasiga ko'tarish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bunga qo'shimcha ravishda, kibertahdidlar, axborot xavfsizligi muammolari va elektron firibgarlik holatlarining ortib borishi bank investitsiya faoliyatini tartibga solishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy ahamiyati yanada oshib bormoqda.

Tijorat banklari investitsiya faoliyatini tartibga solishning xalqaro andozalari, ayniqsa Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar, milliy bank tizimlarini xalqaro talablarga moslashtirishni talab qiladi. Banklarning kapital yetarliligi, risk-menejment tizimi va nazorat ostidagi me'yoriy ko'rsatkichlar bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimlarida qo'llaniladigan zamonaviy nazorat usullari, jumladan,

makroprudensial siyosat, kontrtsiklik kapital buferlari, tizimli ahamiyatga ega banklar uchun maxsus talablar va boshqa nozik vositalarni mahalliy sharoitga moslashtirib joriy etish katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi. Milliy bank tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy investorlar uchun jozibadorligini ta'minlash hamda integratsiya jarayonlarida o'z o'rnini topishi uchun zamonaviy tartibga solish mexanizmlarini joriy etish dolzarbligi shubhasizdir. Shu bilan birga, xalqaro reyting agentliklarining baholashlarida yuqori o'rinlarni egallash, xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va xorijiy banklar bilan korrespondent munosabatlarni mustahkamlash ham nazorat tizimining xalqaro andozalarga muvofiqligini taqozo etadi.

Bank investitsiyalari bilan bog'liq xavf-xatarlarni boshqarish, ularning oldini olish va yumshatish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish ham mavzuning dolzarbligini oshiradi. Kredit risklari, bozor risklari, foiz stavkalari risklari, valyuta risklari hamda operatsion risklar bank investitsiya portfelining barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bulardan tashqari, obro'xavfi, qonunchilik xavfi, strategik xavf va kontragentlik xavfi kabi yangi xil xavf turlari ham banklar faoliyatida tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ushbu xavflarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash uchun zamonaviy ekonometrik modellarni qo'llash, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili imkoniyatlaridan foydalanish hamda erta ogohlantirish tizimlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borish katta amaliy ahamiyatga ega. Davlat moliyaviy nazorati doirasida ushbu risklarni baholash, monitoring qilish va kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini yaratish, banklarning ichki nazorat tizimini takomillashtirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni asoslash ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bunda nazorat organlari va tijorat banklari o'rtasidagi axborot almashinuvi, hisobot tizimining shaffofligi va o'z vaqtidaligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini ta'minlash bo'yicha qo'yilgan strategik maqsadlarga erishish ko'p jihatdan tijorat banklarining investitsiya faolligiga bog'liq. Uzoq muddatli investitsiya kreditlarining hajmini oshirish, ustuvor tarmoqlarni moliyalashtirishni rag'batlantirish, mintaqaviy rivojlanish dasturlarini qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish kabi vazifalarni hal etishda davlat moliyaviy nazorati va banklar o'rtasidagi muvozanatli munosabatlarni yo'lga qo'yish katta ahamiyatga ega. "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalarini moliyalashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritish kabi yangi yo'nalishlar ham banklar investitsiya siyosatining ustuvor sohalariga aylanib bormoqda. Bu esa tartibga solishning shunday yo'llarini ishlab chiqishni talab qiladiki, ular bank tizimining barqarorligini saqlagan holda investitsiya faolligini cheklab qo'ymasin, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik

loyihalarning moliyalashtirilishini rag'batlantirsin va banklarning iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan resurslar oqimini oshirishga ko'maklashsin.

Yuqorida keltirilgan jihatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, davlat moliyaviy nazorati sharoitida tijorat banklari investitsiya faoliyatini tartibga solish yo'llarini tadqiq etish hozirgi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'ta dolzarb mavzudir. Mavzu doirasida o'rganilayotgan masalalar bank-moliya tizimi taraqqiyotining strategik yo'nalishlari, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini moliyaviy ta'minlash kabi keng qamrovli muammolar bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqot natijalari nafaqat ilmiy adabiyotni boyitishga, balki amaliy bank faoliyatini takomillashtirishga, nazorat organlarining ish samaradorligini oshirishga va qonunchilik bazasini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shuningdek, mavzu doirasidagi tadqiqotlar oliy ta'lim muassasalarida bank ishi, moliya va investitsiyalar yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlashda o'quv jarayonini boyitish, mutaxassislarning malakasini oshirish kurslarida zamonaviy bilimlarni yetkazishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu jihatlar mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini, nazariy va amaliy zarurligini hamda istiqbolli yo'nalish ekanligini oqlab beradi.

IMPLEMENTATION OF INTERNAL AUDIT STANDARDS AND THEIR PRACTICAL APPLICATION IN THE CONTEXT OF GLOBAL BEST PRACTICES

Yerniyazov Babaniyaz

Master's student, Group DMNA-25/01k, Banking and Finance Academy

Abstract

This study analyzes the implementation of internal audit standards and their practical application based on international best practices. The research focuses on the Global Internal Audit Standards (2024) developed by the Institute of Internal Auditors (IIA). It evaluates statistical indicators, identifies key challenges in implementation, and examines modern trends such as digitalization, IT audit, and risk-based auditing. The results demonstrate that effective implementation of internal audit standards significantly enhances transparency, governance quality, and organizational performance.

Keywords: internal audit, international standards, IIA, risk-based audit, governance, transparency, digital audit

Introduction

In the context of globalization and increasing financial risks, internal audit has become a fundamental element of corporate governance systems. It ensures accountability, transparency, and effective risk management within organizations.

International standards developed by the Institute of Internal Auditors (IIA) provide a unified methodological framework for improving audit quality and effectiveness.

Main Part

The Global Internal Audit Standards (2024), developed by the Institute of Internal Auditors (IIA), represent a comprehensive and modern framework aimed at enhancing the effectiveness, quality, and consistency of internal audit functions across organizations worldwide. The updated standards are structured into **5 domains, 15 principles, and 52 standards** each addressing key aspects of internal audit activity.

The first domain focuses on the **purpose and positioning of internal audit,** emphasizing its role as an independent and objective assurance and consulting function that adds value and improves organizational operations. This domain highlights the importance of aligning internal audit activities with the strategic goals of the organization.

The second domain is dedicated to **ethics and professionalism,** which includes integrity, objectivity, confidentiality, and competency. These principles ensure that internal auditors maintain high professional standards and adhere to ethical requirements, thereby increasing trust in audit results.

The third domain addresses the **governance of the internal audit function,** including its independence, reporting lines, and interaction with the board and senior management. Research shows that internal audit functions that report directly to audit committees demonstrate significantly higher effectiveness and objectivity.

The fourth domain focuses on **managing the internal audit function,** including resource allocation, planning, and quality assurance. In this context, risk-based planning plays a crucial role, allowing auditors to prioritize high-risk areas and allocate resources efficiently.

The fifth domain covers the **performance of internal audit engagements,** including planning, execution, communication, and follow-up. It ensures that audit activities are conducted systematically and produce reliable, actionable results.

A key feature of the modern internal audit framework is its strong emphasis on a **risk-based approach,** which allows organizations to proactively identify, assess, and mitigate risks. This approach is particularly important in today's environment characterized by rapid digital transformation and increasing cyber threats.

Furthermore, the implementation of these standards contributes to improved **corporate governance, transparency, and accountability.** Empirical studies indicate that organizations with well-established internal audit functions demonstrate higher operational efficiency and lower exposure to financial and operational risks.

Indicator	Value
Audit reporting to audit committee	77%

Organizations with >10 auditors	40%
Average audit cycle duration	60 days
Average internal audit budget	$2 million

These indicators confirm that internal audit is recognized as a strategic function in leading organizations.

Challenges

Despite the significant advantages associated with the implementation of internal audit standards, many organizations face substantial barriers that limit their effective adoption and practical application. These challenges are multifaceted and relate to institutional, financial, and technological constraints.

One of the primary issues is the **lack of qualified internal audit professionals.** The increasing complexity of modern audit requirements, including risk-based auditing, IT audit, and data analytics, demands highly skilled specialists. However, in many organizations, internal auditors lack sufficient training and professional certification, which negatively affects audit quality and effectiveness.

Another critical barrier is **insufficient financial support.** The implementation of international standards requires investment in training, audit tools, software, and quality assurance systems. Nevertheless, empirical data indicate that a significant proportion of organizations do not allocate adequate budgets for internal audit development, perceiving it as a cost center rather than a value-adding function.

In addition, **low levels of digital maturity** represent a serious obstacle. Modern internal audit increasingly relies on digital technologies such as data analytics, continuous auditing, and artificial intelligence. However, many organizations still operate using traditional audit approaches, limiting their ability to detect risks in real time and respond effectively to emerging threats.

According to recent international surveys, **up to 80% of organizations are not fully prepared to implement the updated Global Internal Audit Standards,** particularly in terms of technological readiness and staff competencies. This gap highlights the need for a systematic transformation of internal audit functions.

Furthermore, organizational culture and management support also play a decisive role. In some cases, internal audit is not perceived as an independent function, which undermines its objectivity and limits its influence on decision-making processes.

Addressing these challenges requires a comprehensive approach, including investment in human capital, digital transformation, and strengthening the institutional independence of internal audit functions.

Modern Trends

Modern internal audit is increasingly based on digital technologies, including data analytics, artificial intelligence, and continuous auditing. Approximately 20% of audit plans are now focused on IT and cybersecurity risks.

Conclusion

The implementation of internal audit standards significantly improves governance, reduces risks, and enhances transparency. Future development requires integration of digital technologies, continuous professional development, and alignment with international standards.

IMTIYOZLI KREDITLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Aliqulov Hazrat Amirkulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot davrida moliyaviy xizmatlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biriga aylangan. Jahon iqtisodiyotining o'zgaruvchan sharoitlari, xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologik innovatsiyalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi va aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabining ortishi banklar va boshqa moliya muassasalaridan o'z faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Jahon mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bank-moliya sohasini raqamlashtirish nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, balki iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish imkonini ham yaratadi. Rivojlangan davlatlarda moliya tizimini raqamlashtirish iqtisodiy o'sishning eng kuchli omillaridan biriga aylangan bo'lib, bu jarayon kichik va o'rta biznesning rivojlanishi, innovatsion tadbirkorlikning kuchayishi va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Shu nuqtai nazardan, imtiyozli kreditlash tizimini raqamlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini baholash zamonaviy iqtisodiy fanning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar har qanday davlatning kelajakdagi iqtisodiy salohiyatini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Imtiyozli kreditlash tizimi davlat tomonidan iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyalanishini ta'minlash, mintaqaviy iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etish va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash kabi muhim vazifalarni bajaradi. Ushbu tizim orqali qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar, yoshlar tadbirkorligi, ayollar bandligi, hunarmandchilik, oilaviy biznes, innovatsion startaplar, turizm va xizmat ko'rsatish singari turli yo'nalishlar moliyaviy resurslar bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, imtiyozli kreditlar yangi ish o'rinlarini yaratish, qishloq

aholisining bandligini ta’minlash, kambag’allikni qisqartirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlash bo’yicha davlat siyosatining muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur tizimning samarali faoliyat yuritishi to’g’ridan-to’g’ri milliy iqtisodiyotning barqaror o’sishiga, aholi farovonligining oshishiga va davlatning makroiqtisodiy ko’rsatkichlarining yaxshilanishiga ta’sir ko’rsatadi. Demak, imtiyozli kreditlash tizimining ishlash mexanizmini takomillashtirish va uni zamon talablariga moslashtirish davlat boshqaruvining ustuvor masalalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

An’anaviy imtiyozli kreditlash tizimida bir qator jiddiy muammolar mavjud bo’lib, ular orasida hujjatlarni rasmiylashtirishning uzoq davom etishi, kredit olish jarayonidagi byurokratik to’siqlar, sub’ektiv qaror qabul qilish holatlari, korrupsiya xavfi, tanishbozlik va manfaatdorlik holatlari, resurslarning manzilli yetkazilmasligi, kreditlarning maqsadsiz ishlatilishi va monitoring tizimining zaifligi alohida ajralib turadi. Bunday muammolar imtiyozli kreditlarning haqiqiy ehtiyojmandlarga yetib bormasligiga, davlat byudjeti mablag’larining samarasiz sarflanishiga, kreditlarning qaytarilmasligi bo’yicha holatlarning ko’payishiga va ko’zlangan iqtisodiy maqsadlarga erishilmasligiga olib keladi. Shu bilan birga, an’anaviy tizimda ma’lumotlarni qo’lda yig’ish va qayta ishlash zaruriyati katta inson resurslarini talab qiladi, bu esa o’z navbatida xizmat ko’rsatish xarajatlarini oshiradi va xatoliklarning ehtimolini kuchaytiradi. Mijozlar bilan bevosita aloqa orqali ishlash sharoitida hujjatlarni yo’qotish, ma’lumotlarni soxtalashtirish va boshqa salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Aynan shu sabablarga ko’ra, mazkur tizimni tubdan isloh qilish va zamonaviy texnologiyalar asosida qayta qurish zarurati yuzaga kelgan bo’lib, bu masala ilmiy hamjamiyat va amaliyotchilar e’tiborini jalb etmoqda.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, blokcheyn, bulutli texnologiyalar, mashina o’rganish algoritmlari, biometrik identifikatsiya tizimlari, mobil ilovalar va Internet of Things singari yangi avlod texnologiyalarning keng tarqalishi imtiyozli kreditlash tizimini tubdan o’zgartirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida kredit olish jarayonini to’liq avtomatlashtirish, qaror qabul qilish vaqtini bir necha haftadan bir necha daqiqaga qadar qisqartirish, kredit qobiliyatini ob’ektiv baholash, mijozlar haqida keng ma’lumotlar bazasini shakllantirish, monitoring tizimini real vaqt rejimida amalga oshirish va kreditlarni boshqarish bo’yicha samarali platformalarni yaratish mumkin bo’lmoqda. Shuningdek, blokcheyn texnologiyalari kredit operatsiyalarining shaffofligini va xavfsizligini ta’minlashda, sun’iy intellekt esa kredit risklarini baholash va prognoz qilishda inqilobiy o’zgarishlarni amalga oshirmoqda. Raqamli identifikatsiya tizimlari mijozlarni masofadan turib aniqlash imkoniyatini yaratib, jismoniy hujjatlarni rasmiylashtirish zaruratini bartaraf etmoqda. Bu esa imtiyozli kreditlash mexanizmining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo’yicha tadqiqotlarning ahamiyatini yanada kuchaytiradi va ushbu sohadagi yangi nazariy hamda metodologik yondashuvlarni ishlab

chiqishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Imtiyozli kreditlash tizimini raqamlashtirish shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini ta’minlashda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Raqamli platformalar orqali har bir kredit bo’yicha ariza topshirilishidan tortib, uning ko’rib chiqilishi, rasmiylashtirilishi, mablag’larning ajratilishi, maqsadli ishlatilishi va qaytarilishigacha bo’lgan barcha bosqichlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati paydo bo’ladi. Bunda har bir operatsiya elektron tizimda qayd etilib, undan keyin o’zgartirib bo’lmaydigan ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi, bu esa har qanday qonunbuzilik holatlarini aniqlash va profilaktika qilishda yordam beradi. Bu esa nafaqat davlat organlari, soliq xizmati, prokuratura va boshqa nazorat organlari, balki jamoatchilik nazoratini ham ta’minlab, byudjet mablag’laridan foydalanishning sifatini oshiradi va jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, raqamlashtirilgan tizim ochiq ma’lumotlar siyosatini amalga oshirish, hisobotlarni ommabop tarzda taqdim etish va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish imkonini yaratadi. Xalqaro tajriba shuni ko’rsatadiki, raqamli tizimlar joriy etilgan davlatlarda imtiyozli kreditlardan foydalanishning samaradorlik darajasi sezilarli darajada yuqori bo’lib, davlat resurslari ko’proq ko’zlangan maqsadlarga yo’naltiriladi.

Raqamlashtirish jarayoni korrupsiya, sun’iy to’siqlar va inson omiliga bog’liq sub’ektiv yondashuvlarni bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar oldindan belgilangan algoritmlar va aniq mezonlar asosida ishlaganligi sababli, kredit olish bo’yicha qarorlar ob’ektiv ko’rsatkichlar, mijozning moliyaviy holati, kredit tarixi, biznes-rejasining ishonchliligi va boshqa hisoblanadigan parametrlar asosida qabul qilinadi. Bu esa mansabdor shaxslarning vakolatlaridan suiiste’mol qilish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi, byurokratik to’siqlarni kamaytiradi, hujjatbozlikni qisqartiradi va kredit olish jarayonini barcha fuqarolar uchun teng sharoitda amalga oshirilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan algoritmlar har bir arizani bir xil mezonlar bo’yicha ko’rib chiqib, hech qanday mintaqaviy, ijtimoiy yoki shaxsiy mansublikka qaramay, adolatli qaror qabul qilishni ta’minlaydi. Bu jihat, ayniqsa, an’anaviy tizimda kamsitilishga uchragan ayollar tadbirkorligi, yoshlar biznesi va qishloq joylaridagi tadbirkorlar uchun katta ahamiyatga ega. Korrupsiya darajasining pasayishi davlat byudjeti mablag’larining maqsadli ishlatilishini ta’minlash bilan birga, milliy iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga ham ta’sir ko’rsatadi.

Imtiyozli kreditlash tizimini raqamlashtirish moliyaviy xizmatlarning tezkorligi va qulayligini oshirish, ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtai nazaridan ham g’oyat dolzarbdir. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va veb-portallar orqali fuqarolar hamda tadbirkorlar uy, ofis yoki ish joyidan chiqmasdan turib kredit arizasini topshirish, zarur hujjatlarni elektron shaklda yuklash, kredit shartlari bilan tanishish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va kredit olish jarayonini barcha bosqichlarda kuzatib

borish imkoniyatiga ega bo’lmoqdalar. Bu, ayniqsa, qishloq joylarida yashovchi aholi, chekka tumanlardagi tadbirkorlar, kichik biznes vakillari, nogironlar, keksalar va boshqa toifadagi mijozlar uchun moliyaviy inklyuziyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Avvallari yashash joyidan markaziy shaharlarga borib, navbatlarda turib, ko’plab hujjatlarni rasmiylashtirib, oylar davomida javob kutgan fuqarolar endi raqamli tizimlar orqali bir necha kun ichida kredit olish imkoniyatiga ega bo’lmoqdalar. Shuningdek, masofaviy xizmat ko’rsatish jismoniy nogironligi bo’lgan shaxslar va harakatlanishi cheklangan fuqarolar uchun ham qulay sharoitlar yaratmoqda. Moliyaviy inklyuziyaning kuchayishi esa kambag’allikni qisqartirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va aholining iqtisodiy faolligini oshirish kabi muhim natijalarga olib keladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar imtiyozli kreditlash tizimida ma’lumotlar tahlili va xatarlarni boshqarish bo’yicha mutlaqo yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun’iy intellekt, mashina o’rganish va katta ma’lumotlar tahlili asosida har bir mijozning kredit qobiliyatini chuqur va aniq baholash, uning moliyaviy xulq-atvorini o’rganish, mumkin bo’lgan xatarlarni oldindan aniqlash hamda kreditlarni qaytarish ehtimolini yuqori aniqlikda prognoz qilish mumkin bo’ladi. Zamonaviy skoring tizimlari mijozning bank hisoblari, soliq tarixi, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, kommunal to’lovlari, telefon operatorlari bilan munosabatlari va boshqa ko’plab manbalardan olingan ma’lumotlar asosida murakkab algoritmlar yordamida tahlil o’tkazib, an’anaviy usullarga qaraganda ancha aniq natijalar beradi. Bu esa muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga, bank tizimining barqarorligini ta’minlashga, kreditlash xarajatlarini optimallashtirishga va davlat resurslaridan oqilona foydalanishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, real vaqt rejimida ma’lumotlar tahlili kreditlardan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni oldindan aniqlab, profilaktik chora-tadbirlar ko’rish imkonini beradi. Bu yondashuv kreditlashning umumiy samaradorligini oshirish bilan birga, butun moliya tizimining barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Imtiyozli kreditlash tizimini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Mazkur sohadagi tadqiqotlar natijalari qonunchilik bazasini takomillashtirish, kreditlash mexanizmlarini optimallashtirish, davlat dasturlarini ishlab chiqish, byudjet mablag’larini taqsimlash va ularning ijrosini ta’minlashda muhim asos bo’lib xizmat qiladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashning aniq metodologiyasini ishlab chiqish, raqamlashtirish natijasida erishilgan natijalarni miqdoriy va sifatiy ko’rsatkichlar orqali o’lchash, xarajat-foyda tahlilini o’tkazish hamda kelajakdagi rivojlanish yo’nalishlarini prognoz qilish ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarning asosiy yo’nalishlarini tashkil etadi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar moliya muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, xalqaro tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish, tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamli yechimlarni joriy etish hamda yangi raqamli mahsulot va xizmatlarni rivojlantirishda metodologik yordam beradi. Bunday tadqiqotlar oliy ta’lim

muassasalarida moliya, bank ishi, raqamli iqtisodiyot va innovatsion menejment yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, o'quv dasturlarini yangilash va zamonaviy bilimlarni keng tarqatishda ham muhim rol o'ynaydi.

Важным является то, что системный подход позволяет рассматривать электронную коммерцию как динамическую экосистему, в которой изминения одного элемента влияет на всю цепочку создания ценности.

[1] Разработано автором

Важность данной модели обусловлено функционированием электронной коммерции в условиях непрерывной технологической трансформации, ростом конкурентного давления, постоянным повышением требований со стороны потребителей и сложности институционального регулирования окружающей среды, которая требует учета комплексного характера как внутренних, так и внешних факторных аспектов развития субъектов бизнеса.

В представленной модели ключевым исходным аспектом является взаимосвязь как внутренних, так и внешних факторных аспектов электронной коммерции, лежащих в основе субъектов электронной коммерции. Важно акцентировать, что внутренняя среда концентрирует важнейшие ресурсы компании как фактор, формирующий устойчивое конкурентное преимущество, а конкретно, финансовые ресурсы, инфраструктуру цифрового характера, персонал и инструменты аналитики информации.

Представленные составные определяют уровень потенциала электронной коммерции в субъектах предпринимательство, способность адаптации к динамике внешней среды, способности масштабировать и потенциала внедрения цифровых технологии и принятия управленческих решении в условиях конкурентной борьбы.

Второй аспект, внешняя среда обусловлено с конкурентной средой и способностью бизнеса устоять перед конкурентами, регулированием со стороны государство, уровнем технологического развития, поведением, количественным и качественным составом потребительского спроса, которые в свою очередь косвенно или прямо влияют на стратегического и операционное решения принимающих в субъектах электронной коммерции.

Важно отметить, что ядром представленной модели является система обеспечения устойчивого развития и обеспечения конкурентоспособности субъектов электронной коммерции, дающая возможность интеграции влияния внутренних ресурсов и внешних факторов в единую систему, тем самым дающая возможность эффект синергии. Данная тенденция создает единый контур управленческой системы электронной коммерции.

Основной смысл представленной модели ориентирован на сбалансированное развития электронной коммерции по средствам консолидации стратегических целей, ресурсного потенциала и рыночной конъюнктуры.

Своеобразность разработанной и представленной модели заключается в ее направленности не только на достижения краткосрочных финансово-экономических результатов, но и в обеспечении стратегической устойчивости субъектов бизнеса в условиях цифровой трансформации.

Представленная модель реализуется и функционирует через консолидированную совокупность процессов обеспечения устойчивости и конкурентоспособности электронной коммерции, концентрирующая в себя глубокий анализ, прогнозирование динамику рыночной конъюнктуры, оптимизации процессов конверсии, удержания клиентов, а также роста операционной маневренности и качество не только оказываемых услуг но операционных процессов в субъектах бизнеса сферы электронной коммерции. Процесс анализа и масштабное прогнозирование динамики рыночной конъюнктуры создают возможность своевременно определять динамику изменения спроса, угроз конкурентов и технологические трансформации. Действия по оптимизации конверсии и удержания клиентов направленно на рост эффективного взаимодействия с потребителями и повышения пожизненной ценности клиентов. Процедуры по повышении операционной эффективности и качества снижения затрат, улучшения системы логистики и повышения надежности цифровых серверов тоже являются ключевым составным данной модели, которые в свою очередь играют централью роль в достижении устойчивости в конкурентной борьбе.

Эффектом функционирования представленной модели заключается в достижении высокой эффективности, конкурентоспособности и устойчивого развития бизнес-субъектов электронной коммерции, которые отражаются через специфическую систему показателей. Ядром эффективности отражается через достижения высоких финансовых показателей, конкурентоспособность в свою очередь через маркетинговые и логистические показатели, устойчивость бизнеса посредствам инфраструктурных и характеру операционных процессов. Комплексность модели дает возможность обеспечить консолидацию отмеченных результатов и формировать устойчивую бизнес-модель электронной коммерции, адаптированная к условиям интенсивной цифровой экономики.

Следует отметить, что предложенная модель обеспечивает методологическую основу для комплекции оценки управления устойчивости, а также конкурентоспособности бизнес-субъектов электронной коммерции, основывающая на специфику цифровых рынков, роль клиентского опыта и важности интеграции стратегических, ресурсно-

операционных элементов развития бизнеса.

Представленная модель предполагает трансформацию от концептуального уровня к формированию количественной инструментарий оценки устойчивости и конкурентоспособности субъектов электронной коммерции. В этом аспекте центр внимания смешается на разработке систем показателей и интегральных индексов, позволяющие адекватно оценить и измерить результаты функционирования электронной коммерции и бизнес-субъектов данной сферы, определить влияния ключевых факторов внутренней и внешней среды на их развития.

Учитывая структуру модели процесс оценки устойчивости и конкурентоспособности электронной коммерции должно осуществляется комплексно.

Разработанная модель выражает методологический и системный подход дающий возможность обеспечивать устойчивость и конкурентоспособности субъектов бизнеса электронной коммерции. Данная модель основана на принципах сбалансированного развития важнейших ключевых факторов и функциональных контуров деятельности системы электронной коммерции.

Целевой установкой представленной модели является обеспечения устойчивости бизнеса перед конкурентами и формирования устойчивых конкурентных преимуществ субъектов электронной коммерции, что обуславливает достижения не только краткосрочных результатов, но формирования долгосрочных конкурентных преимуществ в неопределенной рыночной конъюнктуре.




Рисунок 2. Поэтапная модель системного управления инновационным развитием субъектов электронной коммерции[2]

В организации электронной коммерции применения системного подхода предполагает рассмотрения электронной коммерции как целостной системы включающая как социальные так экономические аспекты, основанная на взаимосвязи технологических, организационных, рыночных и финансовых элементов, которые функционируют как единая система в едином направлении.

Применения данного подхода позволяет перефокусировать центр внимания на электронную коммерцию как единую систему, действующих строго по координации между собой для достижения стратегических целей.

[2] Составлено автором



Рисунок 3 Система мониторинга складских и операционных показателей субъектов электронной коммерции[3]

Система показателей приведенные на рисунке 2.4. показывают комплексный подход к мониторингу и управлению складским и операционными процессами бизнес-субъектов электронной коммерции, направленных на повышения эффективности логистической системы, сокращению операционных издержек и обеспечения быстроты и устойчивости выполнения заказов совершенных по средствам онлайн торговли.

Взаимная связь по использованию данных по наличии остатков товара, качественного и количественного состояния заказов, мощности и ёмкости складских помещений, производительности труда персонала позволяет формировать целостное единое представление о текущем состоянии операционных процессов и деятельности позволяя определить слабые узкие места в цепи исполнения обязательств по заказам.

[3] Составлено автором

Процесс анализа остатка товаров по сегментам категории служат основой для принятия управленческих решений связанная с товарной политикой и управления запасами бизнес-субъектов. Данные по остаткам объема складских запасов, скорость оборачиваемости запасов и доля неликвидных товаров дают возможность оценить уровень соответствия складских запасов к реальному спросу, также оценить эффективность использования оборотного капитала в системе электронной коммерции. Такие показатели непосредственно влияют на состояние ликвидности и финансовой устойчивости бизнес-субъектов электронной коммерции.

Процесс мониторинга остатков продукции в сегменте неотработанных заказов позволяют установить контроль за состоянием выполнения клиентских обязательств и дают возможность оценить уровень синхронизации складских и сбытовых процессов.

По результатам проведенного анализа методологической основы электронной коммерции, важно отметить, что изучение электронной коммерции в условиях интенсификации цифровых систем и цифровой экономики требует междисциплинарного и многоуровневого подхода, что обусловлено спецификой системы электронной коммерции. Передовой опыт в системе электронной коммерции предлагает богатый арсенал современных концепции, начиная от системного, процессного в плоть до институционального подхода.

Систематизация данных подходов имеет не только научно-методологическое, но и прикладное значения, позволяющая связать фундаментальные, академические исследования с практическими прикладными задачами направленных на повышения конкурентоспособности субъектов бизнеса. Умелое использования методологии к анализу электронной коммерции даст возможность определять точки и резервы роста эффективности, формировать конкуретоориентированные стратегии для субъектов бизнеса, обосновывать меры государственной политики в сфере электронной коммерции.

По результат использования потенциал электронной коммерции на основе научно-обоснованных подходах получат существенное конкурентное преимущество.

Список использованной литературы

1. Турбан Э., Кинг Д., Ли Дж., Лян Т.-П., Тюрбан Д. Электронная коммерция: стратегия, технологии и управление. – СПб.: Питер, 2021. – 912 с.

1. Laudon K.C., Traver C.G. E-Commerce: Business, Technology, Society. – 19th ed. – New York: Pearson, 2024. – 912 p.
2. Chaffey D. Digital Business and E-Commerce Management. – 8th ed. – Harlow: Pearson Education, 2022. – 664 p.
3. Шапиро К., Вариан Х. Информационные правила. Стратегическое руководство для сетевой экономики. – М.: Альпина Паблишер, 2009. – 352 с.
4. Каплан Р., Нортон Д. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию. – М.: Олимп-Бизнес, 2020. – 320 с.
5. Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. – М.: Альпина Паблишер, 2022. – 715 с.
6. OECD. Digital Economy Outlook 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024.
7. UNCTAD. Digital Economy Report 2024. – Geneva: United Nations, 2024.
8. World Bank. Digital Development Overview 2024. – Washington, D.C.: World Bank, 2024.
9. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1996. – 342 p.
10. Davenport T.H., Harris J.G. Competing on Analytics: The New Science of Winning. – Boston: Harvard Business Review Press, 2017. – 240 p.
11. Kalakota R., Robinson M. E-Business 2.0: Roadmap for Success. – Boston: Addison-Wesley, 2001. – 520 p.

AGRAR SEKTORDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMIDA SUG‘URTANING IQTISODIY AHAMIYATI

Xolmuratov Bekzod Dilshod o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi
orcid.org/0009-0002-3165-611X

Annotatsiya. Mazkur maqolada agrar sektorda risklarni boshqarish tizimida sug‘urtaning iqtisodiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida qishloq xo‘jaligida uchraydigan tabiiy-iqlimiy, moliyaviy, ishlab chiqarish, bozor va institutsional risklarning xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'siri o‘rganildi. Shuningdek, agrar sug‘urtaning ushbu risklarni kamaytirishdagi o‘rni, fermer xo‘jaliklari daromadlarini barqarorlashtirish, investitsion faollikni oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi iqtisodiy samaradorligi baholandi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida agrar sug‘urta tizimining amaldagi holati tahlil qilinib,

rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy baholash amalga oshirildi. Xususan, AQSH, Turkiya, Ispaniya va Xitoy davlatlarida qo‘llanilayotgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi sug‘urta mexanizmlari, indeksli sug‘urta, qayta sug‘urtalash hamda raqamli texnologiyalar asosida risklarni boshqarish tizimlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, agrar sug‘urtani rivojlantirish nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki investitsion jozibadorlikni oshirish, bank kreditlari xavfini kamaytirish hamda qishloq xo‘jaligida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu asosda agrar sug‘urta tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: agrar sektor, risk, risklarni boshqarish, sug‘urta, agrar sug‘urta, indeksli sug‘urta, fermer xo‘jaligi, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, investitsiya.

Abstract. This article examines the economic importance of insurance in the agricultural risk management system. The study analyzes the impact of climatic, production, financial, market, and institutional risks on agricultural producers and evaluates the role of agricultural insurance in mitigating these risks. The paper also assesses the contribution of insurance to stabilizing farmers' incomes, increasing investment activity, and ensuring food security. The current state of agricultural insurance in Uzbekistan is analyzed and compared with international experience, particularly the insurance systems implemented in the United States, Türkiye, Spain, and China. Special attention is paid to index-based insurance, public-private partnership mechanisms, reinsurance systems, and digital technologies in agricultural risk management.

The findings indicate that agricultural insurance significantly enhances financial resilience, reduces credit risks, increases investment attractiveness, and supports sustainable agricultural development. Based on the obtained results, several scientific and practical recommendations are proposed to improve the agricultural insurance system.

Keywords: agricultural sector, risk management, agricultural insurance, financial stability, farmers, investment, index insurance, economic efficiency.

Аннотация. В статье исследовано экономическое значение страхования в системе управления рисками аграрного сектора. Проанализированы природно-климатические, производственные, финансовые и рыночные риски сельского хозяйства, а также оценена роль агрострахования в обеспечении финансовой устойчивости сельскохозяйственных производителей. Изучено современное состояние системы агрострахования Республики Узбекистан и проведен сравнительный анализ с международным опытом США, Турции, Испании и

Китая. Рассмотрены механизмы индексного страхования, государственно-частного партнерства, перестрахования и цифровизации страховых услуг. Результаты исследования показывают, что развитие агрострахования способствует повышению инвестиционной привлекательности отрасли, снижению кредитных рисков и обеспечению устойчивого развития сельского хозяйства.

Ключевые слова: аграрный сектор, страхование, управление рисками, агрострахование, финансовая устойчивость, инвестиции.

Kirish. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar, global inflyatsiya, geosiyosiy beqarorlik hamda oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarning kuchayishi agrar sektorda risklarni samarali boshqarish masalasini dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tabiiy-iqlim omillariga yuqori darajada bog‘liq bo‘lgani sababli ushbu tarmoq boshqa iqtisodiy faoliyat turlariga nisbatan ko‘proq tavakkalchiliklarga duch keladi. Qurg‘oqchilik, sel, do‘l, kuchli shamol, zararkunandalar, kasalliklar, narxlarning keskin o‘zgarishi va moliyaviy resurslarning yetishmasligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining daromadlariga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Agrar risklarning ortib borishi nafaqat fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy barqarorligiga, balki mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati hamda qishloq hududlarining ijtimoiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda risklarni boshqarishning eng samarali iqtisodiy instrumentlaridan biri sifatida agrar sug‘urta tizimi keng qo‘llanilmoqda. Sug‘urta mexanizmlari ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy yo‘qotishlarini qoplash, investitsiyalarni himoya qilish, kredit resurslaridan foydalanishni kengaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham agrar islohotlarni jadallashtirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, agrar sug‘urta bozorining rivojlanish darajasi hali ham xalqaro standartlarga to‘liq mos emas. Sug‘urta xizmatlaridan foydalanish darajasining pastligi, sug‘urta mahsulotlarining cheklanganligi, davlat subsidiyalarining yetarli emasligi va qayta sug‘urtalash tizimining rivojlanmaganligi ushbu yo‘nalishdagi asosiy muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi agrar sektorda risklarni boshqarish tizimida sug‘urtaning iqtisodiy ahamiyatini ilmiy jihatdan baholash, O‘zbekiston amaliyotini xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilish hamda agrar sug‘urta tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Agrar sektorda risklarni boshqarish va sug‘urta tizimini rivojlantirish masalalari so‘nggi yillarda xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunga asosiy sabab sifatida global iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar sonining ortishi, suv resurslari taqchilligi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash zaruratining kuchayishi ko‘rsatiladi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida tavakkalchiliklarni to‘liq bartaraf etishning imkoni mavjud emas, biroq ularni samarali boshqarish orqali iqtisodiy yo‘qotishlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Shu nuqtai nazardan sug‘urta tizimi risklarni boshqarishning eng muhim moliyaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda agrar risklar odatda ishlab chiqarish riski, narx riski, moliyaviy risk, institutsional risk va ekologik risk kabi guruhlarga ajratiladi. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarning ortishi sug‘urta mahsulotlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jahon banki ekspertlari agrar risklarni boshqarishda faqat sug‘urta emas, balki kredit, davlat subsidiyalari, qayta sug‘urtalash va raqamli monitoring tizimlarini yagona mexanizm sifatida qo‘llash yuqori natija berishini ta'kidlaydilar.

So‘nggi yillarda indeksli sug‘urta (index insurance) konsepsiyasi ilmiy adabiyotlarda alohida o‘rin egallamoqda. Mazkur mexanizm hosildorlik yoki ob-havo ko‘rsatkichlari asosida kompensatsiya to‘lashni nazarda tutadi va an'anaviy sug‘urta bilan bog‘liq ekspertiza xarajatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, indeksli sug‘urtaning afzalligi uning tezkorligi, shaffofligi hamda kichik fermer xo‘jaliklari uchun moliyaviy jihatdan qulayligidadir.

FAO va Jahon banki ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda agrar sug‘urtaning muvaffaqiyati uchta asosiy omilga bog‘liqligi qayd etilgan. Birinchidan, davlat tomonidan sug‘urta mukofotlarining ma'lum qismini subsidiyalash. Ikkinchidan, qayta sug‘urtalash tizimini rivojlantirish. Uchinchidan esa meteorologik va agrotexnik ma'lumotlarning raqamlashtirilgan bazasini shakllantirishdir. Ushbu omillar sug‘urta kompaniyalari riskini kamaytirish bilan birga fermerlarning sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ishonchini ham oshiradi.

O‘zbekiston sharoitida ham agrar sug‘urtani rivojlantirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, 2024-yilda BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan tayyorlangan tahlilda iqlim o‘zgarishi tufayli ekinlar hosildorligiga salbiy ta'sir kuchayib borayotgani va amaldagi sug‘urta tizimini tubdan modernizatsiya qilish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqotda agrar risklarni sug‘urtalash bo‘yicha alohida qonunni ishlab chiqish, sug‘urta mukofotlarining kamida 50 foizini subsidiya qilish, Agrar sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish hamda elektron axborot tizimlarini joriy etish tavsiya etilgan.

2025-yildan boshlab O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida bog‘dorchilik mahsulotlarini iqlim xatarlaridan sug‘urtalash loyihasi ishga tushirilgani agrar sug‘urta tizimini modernizatsiya qilish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Mazkur loyiha doirasida gilos, uzum va o‘rik plantatsiyalarini sovuq urish xavfidan sug‘urtalash yo‘lga qo‘yildi hamda sug‘urta mukofotining 50 foizi davlat tomonidan subsidiyalanmoqda. Bu tajriba kelgusida boshqa ekin turlariga ham tatbiq etilishi rejalashtirilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham agrar sug‘urtaning investitsion muhitga ta'siri, fermer xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligi va kredit olish imkoniyatlarini kengaytirishdagi rolini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, sug‘urta mavjud bo‘lgan sharoitda banklar kredit ajratishda tavakkalchilikni pastroq baholaydi, natijada kredit resurslari hajmi va investitsion faollik ortadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishi oddiy zararlarni qoplash tizimidan kompleks risklarni boshqarish modeliga o‘tish bilan bog‘liq. Ya'ni sug‘urta, raqamli monitoring, sun'iy intellekt asosidagi prognozlash, geoinformatsion texnologiyalar, masofadan zondlash va meteorologik ma'lumotlarni integratsiyalash orqali agrar sektorning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash zamonaviy ilmiy konsepsiya sifatida shakllanmoqda.

Mazkur tadqiqotda agrar sektorda risklarni boshqarish tizimida sug‘urtaning iqtisodiy ahamiyatini baholash uchun zamonaviy iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiylik, tizimlilik va kompleks yondashuv tamoyillariga asoslangan bo‘lib, agrar sug‘urta bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning iqtisodiy samaradorligini baholashni nazarda tutadi.

Tadqiqotning nazariy asosini risklarni boshqarish konsepsiyasi, sug‘urta nazariyasi, institutsional iqtisodiyot hamda barqaror qishloq xo‘jaligi rivojlanishi bo‘yicha ilmiy qarashlar tashkil etdi. Shuningdek, FAO, Jahon banki, OECD, UNDP va boshqa xalqaro tashkilotlarning agrar risklarni boshqarish bo‘yicha metodik tavsiyalari ilmiy manba sifatida o‘rganildi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- ilmiy abstraksiyalash;
- qiyosiy tahlil;
- iqtisodiy-statistik tahlil;
- tizimli yondashuv;
- SWOT tahlil;
- ekspert baholash usuli;
- grafik va jadval tahlili;

- umumlashtirish va sintez usullari.

Mazkur usullar agrar sug‘urta tizimining mavjud holatini baholash, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda rivojlantirish istiqbollarini belgilash imkonini berdi.

Risklarni boshqarish tizimi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir necha bosqichlardan iborat. Avvalo risk aniqlanadi va tasniflanadi. Keyingi bosqichda uning yuzaga kelish ehtimoli hamda iqtisodiy oqibatlari baholanadi. Shundan so‘ng riskni kamaytirish vositalari tanlanadi. Ushbu vositalar orasida sug‘urta eng samarali moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Yakuniy bosqichda risk monitoringi va natijalarni baholash amalga oshiriladi.

Shu asosda tadqiqotda agrar sug‘urtaning iqtisodiy samaradorligini baholashning konseptual modeli ishlab chiqildi.

Agrar sektorda risklarni boshqarishning asosiy bosqichlari

Jadval 1[4]

Bosqich	**Mazmuni**	**Sug‘urtaning vazifasi**
Risklarni aniqlash	Tabiiy, moliyaviy va bozor risklarini belgilash	Sug‘urtalanadigan obyektlarni aniqlash
Risklarni baholash	Risk ehtimoli va zarar miqdorini hisoblash	Sug‘urta tarifi va mukofotini belgilash
Risklarni boshqarish	Riskni kamaytirish choralarini qo‘llash	Sug‘urta shartnomasini tuzish
Zararlarni qoplash	Sug‘urta hodisasi yuz berganda kompensatsiya to‘lash	Moliyaviy barqarorlikni tiklash
Monitoring	Natijalarni baholash va tizimni takomillashtirish	Sug‘urta portfelini optimallashtirish

Mazkur konseptual model shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta risklarni boshqarishning yakka vositasi emas, balki kreditlash, davlat subsidiyalari, agrotexnologiyalar va raqamli monitoring tizimlari bilan o‘zaro bog‘langan holda faoliyat yuritishi zarur. Faqat kompleks yondashuv qo‘llanilgandagina agrar ishlab chiqarishning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mumkin.

Tadqiqotda agrar sug‘urtaning iqtisodiy samaradorligini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanildi:

- fermer xo‘jaliklari daromadlarining barqarorligi;
- ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi;
- kreditlardan foydalanish darajasi;

[4] **Manba:** muallif ishlanmasi.

- investitsion faollik;
- sug‘urta qamrovi;
- davlat xarajatlarining samaradorligi;
- oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri.

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida agrar sug‘urtaning iqtisodiy samaradorligi kompleks ravishda baholandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish usuli ham qo‘llanildi. AQSH, Turkiya, Ispaniya va Xitoyning agrar sug‘urta tizimlari O‘zbekiston amaliyoti bilan taqqoslandi. Taqqoslash jarayonida davlat subsidiyalari ulushi, sug‘urta qamrovi, indeksli sug‘urta mahsulotlari, qayta sug‘urtalash mexanizmi hamda raqamlashtirish darajasi asosiy mezon sifatida olindi.

Tahlillar natijasida O‘zbekiston agrar sug‘urta tizimini rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, sug‘urta mukofotlarini subsidiyalash hajmini oshirish, indeksli sug‘urta mahsulotlarini keng joriy etish hamda sun'iy intellekt va geoinformatsion texnologiyalar asosida risklarni baholash tizimini rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Shu tariqa, tanlangan metodologik yondashuv agrar sektorda risklarni boshqarish tizimida sug‘urtaning iqtisodiy ahamiyatini har tomonlama baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan risklarni samarali boshqarish tizimining mavjudligiga bog‘liq. Agrar ishlab chiqarish tabiiy-iqlim sharoitlari, bozor kon'yunkturasi, moliyaviy resurslar, texnologik omillar hamda institutsional muhit ta'sirida faoliyat yuritadi. Shu sababli ushbu tarmoqda risklarni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, agrar sektorda yuzaga keladigan risklarning aksariyati ishlab chiqaruvchining bevosita nazoratidan tashqarida shakllanadi. Ayniqsa, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi, kuchli shamol, do‘l, sel va boshqa tabiiy hodisalar hosildorlikka sezilarli darajada salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarining keskin o‘zgarishi, yoqilg‘i-moylash materiallari va mineral o‘g‘itlar narxining oshishi ham fermer xo‘jaliklari moliyaviy barqarorligini izdan chiqaruvchi omillar sirasiga kiradi.

Shu nuqtai nazardan sug‘urta mexanizmi ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy yo‘qotishlarini qoplash, investitsiyalarni himoya qilish va ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Agrar sektorda uchraydigan asosiy risklar va ularning iqtisodiy oqibatlari

Jadval 2[5]

Risk turi	**Asosiy sabablari**	**Iqtisodiy oqibatlari**	**Sug‘urtaning roli**

[5] **Manba:** muallif ishlanmasi

Tabiiy-iqlim risklari	Qurg‘oqchilik, do‘l, sel, sovuq urishi	Hosildorlikning pasayishi	Zararlarni qoplash
Bozor risklari	Narxlarning o‘zgarishi	Daromadning kamayishi	Moliyaviy barqarorlikni saqlash
Moliyaviy risklar	Kredit foizlari, inflyatsiya	To‘lovga qobiliyatsizlik	Kredit xavfini kamaytirish
Biologik risklar	Kasallik va zararkunandalar	Hosil sifati pasayishi	Kompensatsiya mexanizmi
Institutsional risklar	Qonunchilikdagi o‘zgarishlar	Investitsion noaniqlik	Investitsiyalarni himoya qilish

Jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, agrar risklarning har biri ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Sug‘urta esa ushbu xavflarning iqtisodiy oqibatlarini yumshatishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston agrar sug‘urta tizimining tahlili

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda agrar sug‘urta bozorini rivojlantirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash dasturlarida sug‘urta mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq mavjud tizim hali ham rivojlangan davlatlar darajasiga yetgani yo‘q.

Bugungi kunda sug‘urta xizmatlaridan foydalanayotgan fermer xo‘jaliklari ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bunga asosiy sabablar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- sug‘urta mukofotlarining yuqoriligi;
- sug‘urta mahsulotlari turlarining kamligi;
- fermerlarning moliyaviy savodxonligi yetarli emasligi;
- sug‘urta kompaniyalarining hududiy qamrovi cheklanganligi;
- qayta sug‘urtalash mexanizmlarining sust rivojlanganligi.

Natijada ko‘plab fermer xo‘jaliklari tabiiy ofatlar yuz berganida zararlarni mustaqil ravishda qoplashga majbur bo‘lmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili

Rivojlangan davlatlar tajribasi agrar sug‘urtaning samaradorligi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash darajasiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Masalan, AQSHda Federal Crop Insurance Program orqali sug‘urta mukofotlarining katta qismi davlat tomonidan subsidiya qilinadi. Shu sababli fermer xo‘jaliklarining deyarli barchasi sug‘urta xizmatlaridan foydalanadi.

Turkiyada TARSIM modeli asosida davlat va xususiy sektor hamkorligida yagona agrar sug‘urta tizimi tashkil etilgan bo‘lib, bu model sug‘urta bozori barqarorligini ta'minlashda yuqori samaradorlikka ega.

Ispaniyada esa indeksli sug‘urta va qayta sug‘urtalash tizimlari rivojlangan bo‘lib, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan zararlar qisqa muddatda qoplanadi.

Xitoy tajribasida esa raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va sun'iy yo‘ldosh ma'lumotlari asosida hosildorlik monitoringi olib boriladi. Natijada sug‘urta hodisasini aniqlash va kompensatsiya to‘lash jarayoni sezilarli darajada tezlashgan.

O‘zbekiston va ayrim davlatlar agrar sug‘urta tizimining qiyosiy tavsifi

Jadval 3[6]

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	AQSH	Turkiya	Ispaniya	Xitoy
Davlat subsidiyasi	O‘rta	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori
Indeksli sug‘urta	Boshlang‘ich	Rivojlangan	Rivojlangan	Yuqori	Yuqori
Raqamlashtirish	O‘rta	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Juda yuqori
Qayta sug‘urtalash	Cheklangan	Rivojlangan	Rivojlangan	Rivojlangan	Rivojlangan
Fermerlarni qamrab olish	Past	Juda yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori

Mazkur tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda agrar sug‘urtani rivojlantirish uchun davlat subsidiyalarini kengaytirish, qayta sug‘urtalash institutlarini mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va indeksli sug‘urta mahsulotlarini ommalashtirish zarur.

Sug‘urtaning iqtisodiy samaradorligi

Agrar sug‘urta tizimining iqtisodiy samaradorligi nafaqat zararlarni qoplash bilan, balki ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash, investitsion faollikni oshirish va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan ham belgilanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta tizimi rivojlangan hududlarda:

- fermer xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligi yuqoriroq bo‘ladi;
- kredit mablag‘laridan foydalanish imkoniyati kengayadi;
- investitsiyalar hajmi ortadi;
- ishlab chiqarish hajmi barqarorlashadi;
- oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanadi.

Shuningdek, sug‘urta tizimi davlat budjeti uchun ham iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi. Chunki tabiiy ofatlar yuz berganida to‘g‘ridan-to‘g‘ri budjet mablag‘lari hisobidan kompensatsiya to‘lash zarurati kamayadi va bu vazifa sug‘urta bozori orqali amalga oshiriladi.

Agrar sug‘urta tizimini rivojlantirish istiqbollarini aniqlash maqsadida

[6]**Manba:** muallif ishlanmasi asosida xalqaro tajribalar umumlashtirilgan.

SWOT tahlil usulidan foydalanildi. Mazkur tahlil mavjud imkoniyatlarni baholash, ichki va tashqi omillarning ta'sirini aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Agrar sug‘urta tizimining SWOT tahlili

Jadval 4

Kuchli jihatlar (Strengths)	**Zaif jihatlar (Weaknesses)**
Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash siyosati mavjud.	Sug‘urta qamrovi past darajada.
Agrar islohotlarning izchil amalga oshirilishi.	Fermerlarning sug‘urta madaniyati yetarli emas.
Sug‘urta kompaniyalari faoliyatining kengayib borishi.	Sug‘urta mahsulotlari soni cheklangan.
Qonunchilik bazasining takomillashib borishi.	Qayta sug‘urtalash tizimi yetarli rivojlanmagan.
Raqamlashtirish jarayonlari boshlangan.	Risklarni baholash metodikalari eskirgan.
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
Indeksli sug‘urtani joriy etish.	Iqlim o‘zgarishining kuchayishi.
Sun'iy intellekt asosida risklarni prognozlash.	Suv resurslari tanqisligi.
Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.	Global narxlarning beqarorligi.
Xalqaro qayta sug‘urtalash bozoriga chiqish.	Tabiiy ofatlar sonining ortishi.
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.	Fermerlarning to‘lov qobiliyati pasayishi.

SWOT tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda agrar sug‘urta tizimini rivojlantirish uchun zarur institutsional asoslar mavjud. Biroq mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun sug‘urta bozori infratuzilmasini takomillashtirish, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari asosida agrar sektorda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, agrar sug‘urta bozorida davlat subsidiyalari hajmini bosqichma-bosqich oshirish maqsadga muvofiq. Bu fermer xo‘jaliklari uchun sug‘urta mukofotlari yukini kamaytiradi va sug‘urta qamrovini kengaytiradi.

Ikkinchidan, indeksli sug‘urta mahsulotlarini ommalashtirish zarur. Ob-havo va hosildorlik indekslariga asoslangan sug‘urta tizimi zararlarni tezkor baholash va kompensatsiya to‘lash imkonini beradi.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligi risklarini baholashda sun'iy intellekt, masofadan zondlash (remote sensing), dron texnologiyalari hamda geoinformatsion tizimlardan foydalanishni kengaytirish lozim.

To‘rtinchidan, Agrar sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish orqali yirik tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotishlarni markazlashgan tartibda qoplash tizimini yaratish tavsiya etiladi.

Beshinchidan, xalqaro qayta sug‘urtalash kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash zarur.

Oltinchidan, fermer xo‘jaliklari uchun agrar sug‘urta bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari va moliyaviy savodxonlik kurslarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Yettinchidan, bank kreditlari ajratishda sug‘urtalangan fermer xo‘jaliklariga foiz stavkalari bo‘yicha preferensiyalar berish tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Sakkizinchidan, yagona elektron agrar sug‘urta platformasini yaratish sug‘urta shartnomalarini rasmiylashtirish, monitoring qilish va zararlarni baholash jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi.

To‘qqizinchidan, sug‘urta kompaniyalari, meteorologiya xizmati va qishloq xo‘jaligi tashkilotlari o‘rtasida yagona axborot almashinuv tizimini shakllantirish zarur.

O‘ninchidan, agrar sug‘urta tizimining samaradorligini baholash uchun milliy indikatorlar tizimini ishlab chiqish va ularni muntazam monitoring qilib borish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Tadqiqot natijalari agrar sektorda risklarni boshqarish tizimida sug‘urtaning iqtisodiy ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatdi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tabiiy-iqlim, bozor, moliyaviy va institutsional omillarga yuqori darajada bog‘liq bo‘lgani sababli risklarni samarali boshqarish ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, sug‘urta tizimi fermer xo‘jaliklarining moliyaviy yo‘qotishlarini qoplash, daromadlarini barqarorlashtirish, investitsion faollikni rag‘batlantirish va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy iqtisodiy instrumentlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda agrar sug‘urta tizimini rivojlantirish bo‘yicha muayyan institutsional islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, sug‘urta qamrovining pastligi, sug‘urta mahsulotlari assortimentining cheklanganligi, qayta sug‘urtalash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda fermerlarning sug‘urta madaniyati bilan bog‘liq muammolar tizim samaradorligini pasaytirmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili AQSH, Turkiya, Ispaniya va Xitoy kabi davlatlarda

davlat subsidiyalari, indeksli sug‘urta, qayta sug‘urtalash hamda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash agrar risklarni boshqarishda yuqori natijalar berayotganini tasdiqladi. Mazkur tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish O‘zbekiston agrar sug‘urta bozorining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar agrar sug‘urta tizimini takomillashtirish, risklarni boshqarish samaradorligini oshirish, fermer xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi agrar sektorda investitsion jozibadorlikni oshirish, sug‘urta bozorini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligining barqaror iqtisodiy o‘sishini ta'minlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Improving the System of Financing Civil Society Institutions through State Grants

https://orcid.org/0009-0001-5265-8985
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna
Teacher of the Department of Industrial Economics and Management,
Tashkent Institute of Chemical Technology.

Abstract. This thesis examines the improvement of financing mechanisms for civil society institutions through state grants. It analyzes global and national relevance, institutional constraints, transparency issues, and performance-based financing approaches. The study argues that Uzbekistan should strengthen competitive grant allocation, digital monitoring, and outcome-oriented evaluation to increase accountability, social impact, and financial sustainability of civil society organizations.

Keywords: civil society institutions, state grants, NGO financing, public accountability, performance-based budgeting, social partnership, Uzbekistan, digital monitoring, transparency.

Civil society institutions play an increasingly important role in modern governance, social protection, public oversight, and inclusive development. In many countries, non-governmental non-profit organizations, public associations, foundations, and community-based institutions help identify social problems earlier than public authorities, mobilize local initiative, deliver targeted services, and represent the interests of vulnerable groups. Therefore, the financing of civil society institutions is no longer only a charitable or auxiliary issue; it has become an important element of public financial management, democratic governance, and

sustainable development. In the context of global transformations, including social inequality, climate risks, migration, youth unemployment, and declining public trust, state grants are one of the key instruments through which governments can support socially significant initiatives while preserving the independence and initiative of civil society actors.

At the global level, the relevance of this issue is strengthened by two contradictory trends. On the one hand, demand for civil society participation in public service delivery and social accountability is increasing. On the other hand, financial resources for civil society are becoming more competitive and uncertain. According to OECD data, official development assistance by DAC members declined to USD 212.1 billion in 2024, equal to 0.33 percent of their combined gross national income, which shows that international financing conditions are becoming less stable for many developing countries (OECD, 2025a). In addition, OECD's analysis of civic space emphasizes that government funding for civil society should be predictable, transparent, non-discriminatory, and should include not only short-term project support but also instruments that strengthen institutional sustainability (OECD, 2025b). These international standards demonstrate that the quality of grant governance is as important as the volume of allocated funds.

For Uzbekistan, the issue is especially relevant because civil society institutions are increasingly involved in the implementation of social, legal, educational, environmental, gender, youth, and regional development programs. The "Uzbekistan–2030" Strategy directly provides for increasing the number of state grant projects and social orders supporting civil society institutions by 10 percent annually (President of the Republic of Uzbekistan, n.d.). This policy direction indicates that civil society financing is becoming an institutional component of national reform. Moreover, the National Association of Non-Governmental Non-Profit Organizations of Uzbekistan reports more than 9,500 NGOs in the country, which confirms the expansion of the sector and the need for more effective financial mechanisms (National Association of NGOs of Uzbekistan, n.d.). The e-ngo.uz portal also provides digital services related to NGO registration, grant announcements, applications, open data, and project results, creating a foundation for greater transparency and digital accountability (Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, n.d.).

The scientific problem of this study is that the current system of financing civil society institutions through state grants does not yet fully ensure a stable balance between three objectives: fair access to public resources, measurable social

impact, and strict financial accountability. In practice, grant mechanisms may face several institutional limitations: insufficient standardization of evaluation indicators, weak linkage between grant amounts and expected outcomes, limited use of digital monitoring data, unequal capacity among NGOs to prepare competitive proposals, and underdeveloped post-project impact assessment. As a result, grant financing can become formal, fragmented, or focused mainly on expenditure compliance rather than real social results. This creates a methodological gap between the budgetary allocation of grants and the assessment of their public value.

The purpose of the research is to develop scientifically grounded approaches for improving the system of financing civil society institutions through state grants, with special attention to transparency, competitiveness, performance measurement, and digital monitoring. The scientific significance of the study lies in the proposed transition from an input-oriented grant model to an outcome-oriented grant governance model. In this approach, the efficiency of grant financing is assessed not only by the amount of allocated resources or the number of supported projects, but also by measurable indicators such as beneficiary coverage, cost-effectiveness, regional relevance, sustainability of project results, public satisfaction, and contribution to state program objectives.

The study applies several research methods. Economic analysis is used to examine the relationship between public financing and social outcomes. Comparative analysis is applied to compare Uzbekistan's grant financing priorities with international principles of civic-space funding and public accountability. Institutional analysis is used to identify legal, organizational, and administrative barriers in grant allocation and monitoring. Statistical analysis is applied to interpret available quantitative data, including the number of NGOs, planned annual growth of grant projects, and international development finance trends. In addition, logical generalization is used to formulate practical recommendations for improving the grant financing system.

The expanded analysis shows that Uzbekistan has already formed important institutional foundations for supporting civil society. The existence of a national development strategy that explicitly increases grant projects and social orders by 10 percent annually is a strong policy signal. The digitalization of NGO-related services through e-ngo.uz creates opportunities for reducing administrative burden, expanding access to information, and strengthening openness in grant procedures. The presence of more than 9,500 NGOs indicates that the sector has sufficient scale to become a significant partner in solving social problems.

However, the growth of the sector also increases the need for differentiated financing models. A single uniform grant approach cannot equally support large national NGOs, regional associations, newly established grassroots initiatives, and specialized expert organizations.

International experience suggests that effective grant systems are based on several principles. First, grant competitions should be transparent and predictable, with clear eligibility criteria, scoring methodology, conflict-of-interest rules, and public disclosure of results. Second, financing should be linked to measurable outcomes rather than only planned activities. Third, reporting should combine financial accountability with social impact assessment. Fourth, the state should avoid excessive administrative control that may reduce the independence of civil society institutions. Fifth, capacity-building support should be provided to smaller and regional NGOs so that competition does not benefit only organizations with stronger administrative resources. These principles are consistent with OECD recommendations on transparent and non-discriminatory government funding for civil society (OECD, 2025b).

In Uzbekistan's conditions, the improvement of state grant financing should be based on a performance-based model. This model should include three interconnected stages: pre-grant evaluation, implementation monitoring, and post-grant impact assessment. At the pre-grant stage, project proposals should be evaluated according to social relevance, alignment with state priorities, realism of budget estimates, institutional capacity, innovation, and expected measurable results. At the implementation stage, grant recipients should submit digital progress reports through a unified platform, while monitoring bodies should use risk-based supervision. At the post-grant stage, projects should be assessed according to achieved outcomes, beneficiary satisfaction, cost per result, sustainability, and potential for scaling. Such a model would reduce formalism and increase the real public value of grant resources.

A scientifically grounded approach also requires the introduction of an integrated grant effectiveness index. This index may include financial discipline, result achievement, social coverage, regional priority, transparency of reporting, and sustainability of outcomes. Each indicator should have a weighted score, allowing grant-making institutions to compare projects objectively and identify high-performing organizations. At the same time, the index should not be used only as a control instrument; it should also help NGOs improve their internal management, budgeting, and reporting systems. If applied correctly, such an index can increase trust between the state, civil society, donors, and citizens.

